

**BADIIY SAN'ATLARNI O'QITISH USULLARI
VA METODIKASI****Norqobilova Muhayyo Shabonona***CHDPU O'zbek tili va adabiyoti**mutaxassisligi1-kurs magistranti*muhayyonorqobilova@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada badiiy san'atlarni o'qitish jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etishga oid takliflar hamda ushbu mavzuni zamonaviy metodlar, interfaol usullar orqali o'qitishning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, kompetensiya, BKM, Blum taksonomiyasi, yaratish, "tabu so'z" metodi*

Bugungi kunda zamonaviy adabiy ta'limning asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod shaxsini kamol toptirish, his-tuyg'ularini tarbiyalash, atrofdagi insonlarning hissiyot va tug'ularini tushunish hamda ular bilan ijobiy munosabatlar qurish kabi ijtimoiy kompetensiyalar bilan bir qatorda badiiy didni shakllantirish, tasavvur olamini boyitish kabi bir qancha muhim masalalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Adabiyotdagi har bir tur va janrlarni o'qitish orqali ana shu kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, epik asarlar markazida voqelik, dramatik asarda harakat, lirik asar markazida esa hissiyot yotadi. Shunga ko'ra lirik asarlarni o'rganishga bag'ishlangan darslarning maqsadi va vazifasi o'quvchilardagi badiiy idrokning to'g'riligi, teranligini ta'minlash, ularni poetik mahorat sir-asrorlari bilan tanishtirish bilan birga asarning mohiyatiga kirish, qahramonni his qilishga erishishdan iborat. Qozoqboy Yo'ldoshovning: "Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Chinakam lirik she'r tinglovchi yoki o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarini uyg'otadi. Samimiy lirik so'z hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum", [84;233]. - degani bejiz emas. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ular samimiyati muhimdir. Ana shu ruhiy holat, hissiyotni o'quvchiga yuqtirishda she'riy san'atlarning o'rni beqiyosdir. Fikrimiz isboti sifatida Usmon Azimning quyidagi misralariga e'tiborimizni qaratsak:

Yoshingni ko'zingda ushlaysan mahkam,

Yiqilsa, bu dunyo ko'tarolmaydi.

Misrada qo'llangan ko'zyoshni "dunyo ko'tarolmasligi" mubolag'a bo'lib, lirik qahramonning ayni damdagi ruhiy holati va xarakterini ochib bermoqda. U shu qadar g'amga botganki, bir tomchi ko'zyoshi parcha-parcha etishi mumkin, u shu qadar matonatliki, dunyoni parchalashi mumkin bo'lgan ana shu og'ir bir tomchi yoshni ko'zlarida mahkam tuta olayapti. O'quvchi mutolaa davomida mana shu hissiyotni o'zida

his qiladi va lirik qahramonga nisbatan hamdardlik tuyadi. She’rda hissiyotni bu qadar yuqumli bo’lishini ta’minlagan mubolag’a sanatining qo’llanishi hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, lirik asarlarni tahlilida she’riy san’atlarga ham e’tibor qaratish kerakligi yuzga chiqadi. Chunki lirikaning badiiy jilosini anglashda she’riy san’atlarni bilish muhim hisoblanadi. Shu boisdan badiiy san’atlarni o’qitish metodikasini shakllantirish masalasiga zamonaviy adabiy ta’limning muhim vazifasi sifatida qarashimiz lozim.

Badiiy san’atlarni o’qitishda, odatda, dastlab nazariy ma’lumot, so’ngra badiiy parchdan shu san’atni topish topshirig’i va nazariy ma’lumotni xotirada muhrlashga qaratilgan savollar beriladi. 6-7-sinf adabiyot darsliklarida jonlantirish (tashxis), zidlantirish (tazod), o’xshatish (tashbeh), metafora (istiora) kabi badiiy san’atlar berilgan. Ular yuzasidan berilgan topshiriqlarga nazar tashlaydigan bo’lsak, mazmunan bir xil va mavzuga olib kiruvchi kirish savollari va topshiriqlari berilmaganligiga guvoh bo’lamiz. Barcha topshiriqlar mazmunan Blum taksonomiyasining bilish va tushunish bosqichidagi topshiriqlar sirasiga kiradi. 8-sinf adabiyot darsligida esa hatto eng quyi darajadagi, bilish bosqichidagi savol-topshiriqlarni ham uchratmaymiz. Faqat nazariy ma’lumotlar berish bilangina cheklangan. Bu esa badiiy san’atlarni o’qitish masalasiga u darajada urg’u berilmayotganini anglatadi. Mavzuga oid topshiriqlar soni bir donadan oshmasligi ham bunga yaqqol misoli bo’la oladi. Quyida badiiy san’atlarni o’qitishga oid bir qancha tavsiyalar va topshiriqlarga na’munalar berib o’tamiz.

Odatda, badiiy san’atlar nazariydan amaliyga tarzida o’qitiladi. O’quvchilar mavzuga oid BKMLarga ega bo’lishlari uchun nazariydan amaliyga emas, amaliydan nazariyga qaratilgan dars jarayonini tashkil qilish samarali hisoblanadi. Masalan, dars mavzusi tashbih san’ati bo’lsa, dastlab, yangi mavzu bayonidan oldin o’quvchilarga she’r matni berilishi va ushbu she’rning nafisligini oddiy bir matndan nimasi bilan farqlanib turishi haqida kirish savollari berib o’tiladi. Misol uchun:

Dengiz kabi ko’rinar osmon,
Xudo kabi tuyilar aqcha.
 Nogirondek onajon tilim,
 Shifokordek yeti yot lahcha.

(Bek Ali)

1-topshiriq. Quyidag mulohaza va she’rda ajratib ko’rsatilgan jumlaning solishtiring. Sizningcha, qaysi birida fikr ta’sirchanroq va chiroyli ifodalangan? Sababini sababini tushuntirishga urinib ko’ring.

Mulohaza: *“Hozirgi davr kishilari puli bor odam har narsaga qodir deb o’ylashmoqda”.*

2-topshiriq. Yuqoridagi she’rning oddiy axborot beruvchi matndan farqlovchi belgilarini o’zida tashiyotgan so’z yoki birikmalarni topib daftaringizga yozing.

Ushbu topshiriqlar kirish topshiriqlari hisoblanib, o’quvchini mavzuga kirishga tayyorlaydi va mavzuni yanada yaxshiroq tushunilishini ta’minlaydi.

3-topshiriq. Yuqoridagi she’rda qo’llangan tashbihlarni toping.

4-topshiriq. Yuqorida berilgan she’r asosida quyidagi jadvalni to’ldiring.

O’xshayotgan narsa	Nimaga o’xshatilayapti?	Nima sababdan o’xshatilayapti?
--------------------	-------------------------	--------------------------------

5-topshiriq. Quyida berilgan rasmlarni she’rdagi tashbihlar bilan moslashtiring.

- | | |
|---|--|
| 1) Qoq yorilay deydi-ya momaqaldiroq
Ilonni olovdan yasadi jinlar.
(Nazar Shukur) | 2) Bulutlarning etagida zar,
Amu uzra to‘r tashlar quyosh.
(Erkin Vohidov) |
| 3) Shalvirab mag‘ribga yiqilar oftob,
Osmonning yuziga toshadi so‘gal.
(Jontemir) | 4) Bo‘yung sar-u sunbardek, beling qil,
Vafo qilg‘on kishig‘a vafo qil.
(Xorazmiy) |



1)



2)



3)



4)

Ushbu topshiriqlar mavzuning nazariy qismi tushuntirib berilgandan so‘ng, mustahkamlash uchun beriladi. Bu topshiriq fanlararo integratsiya asosida tuzilgan bo‘lib, she’rda ifodalanayotgan fikrning jozibadorligini, tashbihning naqadar jo‘yaliligini o‘quvchilarga ochib berish xizmat qiladi. Ushbu topshiriqlarni video yoki audio shaklda ham tuzib chiqish mumkin. Boshqa badiiy san‘at turlari, xususan, istiora, tashxis, talmeh, tazod kabi turlarini o‘qitishda ham bunday topshiriq turlari samara beradi. Barcha badiiy san‘at turlari o‘tib bo‘lingandan so‘ng “Tabu so‘zni top” nomlangan didaktik o‘yin o‘tkazilsa, qiziqarli va dars jarayoni qiziqarli va samarali tarzda o‘tadi. O‘yin sharti: har bir o‘quvchiga 1 dona so‘z yozilgan kartochka tarqatiladi. Ushbu so‘zni 4 ta badiiy san‘atga qo‘yib yozishlari kerak (san‘at hosil qilishda shu so‘z yashiriladi) va boshqalar bu qaysi so‘z

ekanligini topishlari lozim. Masalan, bitta o‘quvchiga ilm so‘zi berildi. U berilgan so‘zga quyidagicha badiiy san’atlar hosil qiladi:

ILM	
Talmih (1 ta)	Suqrot
Tashbih (2 ta)	Nur kabi, buloqdek
Tanosub (3 ta)	Ma’rifat, fan, bilim
Tavzi (kamida 4 ta so‘zdan iborat gap)	Insonning iymoni ilinj istaydi

Berilgan so‘z asosida badiiy san’at turlari hosil qilingandan so‘ng o‘quvchi o‘qib beradi, boshqalar esa qaysi so‘z ekanligini hosil qilingan san’atlar asosida topishlari kerak bo‘ladi. Ushbu topshiriq o‘quvchilarning badiiy san’atlarni qay darajada tushungaligi va uni qo‘llay olish malakasi hamda yaratuvchanlik qobiliyatini o‘stirish va mavzu yuzasidan egallagan BKMLarni tekshirishga qaratilganligi bilan ahamyatlidir. Ma’lumki, yaratish bilimning eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra o‘quvchi mavzuni bilish, tushunish, qo‘llash bosqichlarini egallaganlaridan so‘ng yaratishga yo‘naltiruvchi topshiriqlar berilsa mavzuni mustahkam egallanishi amalga oshar edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, she’riy san’atlar lirik asarning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, tildan estetik-emotsional foydalanish orqali o‘quvchiga chuqur hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy san’atlar ifodalanayotgan badiiy timsol xususiyatlarini yanada yaqqol namoyon bo‘lishiga, o‘quvchi ko‘z oldida yorqinroq gavdalanishiga, biror mashhur shaxs voqeaga ishora aytilmoqchi bo‘lgan fikr yoki tasvirlanayotgan manzaraning aniqroq va jonliroq chiqishiga hamda ifodalanayotgan g‘oyaning hayotiyiligi va she’rning musiqiyiligini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarga she’riy san’atlarni o‘rgatishning ahamiyati shundaki, ularda til va ifoda ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi va asarning badiiy qiymatini aniqlay olish ko‘nikmasini shakllantiradi. Lirik asarlardagi badiiy san’atlar tahlili jarayonida o‘quvchilarda til qudratini kashf etish imkoni ham tug‘iladi. Bundan tashqari tashbih, mubolag‘a, irsoli masal, tashxis kabi unsurlar bilan boyitilgan lirik na’munalar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, tasavvurini boyitadi. Demak, badiiy san’atlarni o‘rgatish nafaqat adabiyotdan bilim beradi, balki o‘quvchilarning hissiy zehni, ijodkorligini hamda hamdardlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu boisdan ham zamonaviy lirik asarlardagi badiiy san’atlarni o‘qitishning zamonaviy usul va metodlarini yaratish bugungi adabiy ta’limning yetakchi muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ana shu masalaga yechim berish maqsadida yuqorida badiiy san’atlarni o‘qitishga oid bir qancha metodlar va topshiriqlar berib o‘tildi. Ushbu topshiriq va metodlarning mazmuni Blum

taksonomiyasining bosqichlari asosida o‘quvchilarga badiiy san’atlarga oid nazariy bilim berish, ushbu bilimlardan tanish va notanish vaziyatlarda foydalana olish hamda qo‘llash va eng muhimi, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar shunchaki axborot sifatida saqlanmasdan, ular asosida BKMLarni yaratuvchanlikka qaratish ya’ni yaratuvchanlik, ijod eta olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2018.
2. Mirqosimova M. Hozirgi o‘zbek adabiyoti namunalarini sharhlab o‘rganish. Toshkent, 2015.
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti, 2010 .
4. Yo‘ldoshov Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning lmiy-metodik asoslari. Toshkent , 1997.
5. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Akademnashr, 2020.